




O‘zbekiston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi (2020-yil yanvar-aprel)

B - Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqaradigan sanoat

• B - 12,7 trln.so‘m

• C - 81,7 trln.so‘m



• D - 9,1 trln.so‘m

• E - 0,7 trln.so‘m

D - Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

Dastlabki ma‘lumotlar bo‘yicha 2020-yilning yanvar-aprel oylarida respublika korxonalari tomonidan 104,2 trln. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2019-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 94,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 78,4 % ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo‘lib, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 18,3 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 2,5 % ga hamda suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishda - 11,4 % ga pasayish kuzatildi.

Shuningdek, elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalashning - 5,5 % ga o‘sishi kuzatildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da




Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2020-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 12,7 trln. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 12,2 % ini tashkil etdi.



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O‘tgan yilning shu davriga nisbatan ko‘mir qazib olish - 19,1 % ga hamda chaqiq tosh - 17,6 % ga, neft qazib olish 0,6 % ga oshgan bo‘lsa, shag‘al qazib olish 77,8 % ga, gaz kondensati - 6,4 % ga, kaolin - 46,4 %, hamda tabiiy gaz qazib olish - 15,9 % ga pasaygan.




Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-aprel	2020-yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Ko‘mir, <i>ming t.</i>	1 018,5	1 213,4	194,9
Neft, <i>ming t.</i>	231,2	232,6	1,4
Tabiiy gaz, <i>mln. kub.m.</i>	20 509,7	17 253,8	-3 255,9
Gaz kondensati, <i>ming t.</i>	541,3	506,9	-34,4
Chaqiq tosh, <i>ming t.</i>	458,7	539,7	81,0
Shag‘al, <i>ming t.</i>	115,9	25,7	-90,2
Kaolin, <i>ming t.</i>	78,3	41,9	-36,4



Ishlab chiqaradigan sanoat


2020 yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 81,7 trln. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 78,4 % ini tashkil etdi.





**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi
bo‘yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da**


O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,9 % ni (2019 yil yanvar-aprel oylarida - 1,7 %), o‘rta-yuqori texnologiyali - 24,9 % (26,2 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 37,8 % (36,0 %) va quyi texnologiyalisi - 35,4 % (36,1 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi - 20,3 % (2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 100,5 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 25,1 % (2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 98,2 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 17,3 % (2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,1 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 15,7 % (2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 97,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 9,5 % (2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 93,4 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati



2020-yilning yanvar-aprel oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 365,8 ming tonna avtomobil benzini (2019-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 18,5 % ga o‘sgan), 153,8 ming tonna kalava ip (39,5 %), 615,0 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (23,3 %), 49,7 mln. litr pivo mahsulotlari (6,5 %) ishlab chiqarilib, yuqori o‘shish sur‘atlari kuzatildi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-aprel	2020-yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Yengil avtomobillar, <i>dona</i>	79 614	96 727	17 113
Yuk avtomobillari, <i>dona</i>	1 719	1 237	-482
Avtomobil dvigatellari, <i>ming dona</i>	63,8	77,1	13,3
Yumshoq bug‘doy va spelta uni, <i>ming t.</i>	498,8	615	116,2
Paxta tolasi, <i>ming t.</i>	238,8	271,3	32,5
O‘simlik yog‘i (tozalangan), <i>ming t.</i>	80,4	64,7	-15,7



Avtobus ishlab chiqarish sanoati (dona)



Respublikada 2020-yilning yanvar-aprel oylarida 424 dona avtobus ishlab chiqarilib, ushbu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 28,5 % ga pasaygan.


Shuningdek, 2020-yilda eng yuqori ko‘rsatkich mart oyida kuzatilib, 176 donani tashkil etgan.



Avtomobil dvigatellari ishlab chiqarish (ming dona)


Respublikada avtomobil dvigatellari ishlab chiqarish sanoatida 77,1 ming dona dvigatellar ishlab chiqarilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 20,9 % o‘shishga erishildi.

Shuningdek, 2020-yilda eng yuqori ishlab chiqarish mart oyida kuzatildi (22,5 ming dona).





Yuk avtomobillari ishlab chiqarish sanoati (dona)



Respublikada 2020-yil yanvar-aprel oylarida jami 1 237 dona yuk avtomobillari ishlab chiqarildi. Yuk avtomobillari ishlab chiqarish sanoatida ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 28,5 % ga pasaygan.

Shuningdek, 2020-yilda eng yuqori ishlab chiqarish sur‘ati mart oyida kuzatilib, 378 donani tashkil etdi.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirganda yengil avtomobillar - 1,2 m., avtomobil dvigatellari - 1,2 m., avtomobil benzini - 1,2 m., yurgizuvchi g‘ildiraklar, ularning qismlari va jihozlari - 1,2 m., radiatorlar, shovqin so‘ndirgichlar va chiqarish quvurlari, ulovchi mexanizmlar, rul chambaraklari, rul kolonkalari va mexanizmlarining karterlari va ularning qismlari - 1,4 m. ga oshdi.

Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2020-yil yanvar-aprel oylarida 25 081 dona “Nexia T-250” (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 113,8 %), 23 694 dona “Cobalt” (139,6 %), 17 907 dona “Lacetti-Gentra” (140,7 %), 17 561 dona “Damas” (123,6 %), 10 365 dona “Spark” (158,1 %) hamda 2 119 dona “Labo” (79,5 %) avtomobillari ishlab chiqarildi.



O‘zbekiston Respublikasida yengil avtomobillar
ishlab chiqarish sanoati,
(dona)



«Cobalt»



«Damas»



«Labo»



**O‘zbekiston Respublikasida traktor
ishlab chiqarish sanoati,**
(dona)



2020-yilning yanvar-aprel oylarida qishloq xo‘jaligi texnikasi ishlab chiqarish sanoatida, jami 456 dona traktorlar ishlab chiqarildi, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,8 martaga oshgan.

Shuningdek, 2020-yilda eng yuqori ishlab chiqarish fevral oyida kuzatildi (234 dona).



**O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligi
texnikasi ishlab chiqarish sanoati,**
(dona)

2020-yilning yanvar-aprel oylarida qishloq xo‘jaligi texnikasi ishlab chiqarish sanoatida, jami 403 dona kultivatorlar ishlab chiqarildi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 35,7 % ga kamaygan.

Shuningdek, 2019-yilda eng yuqori ishlab chiqarish yanvar oyida kuzatilib 144 donani tashkil etdi.





Ishlab chiqaradigan sanoatda, yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-aprel	2020-yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo‘yoqlar va laklar, t.	4 780,2	3 081,7	-1 698,5
Portlandsement, ming t.	2 834,4	2 768,9	-65,5
Tamaki mahsulotlari, mln. dona	3 578	3 406	-172,0
Dizel yoqilg‘isi, ming t.	341,8	363,4	21,6
Avtomobil benzini, ming t.	308,7	365,8	57,1
Traktorlar, dona	164	456	292

Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari, kimyo korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan, ammoniy sulfat (2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan 110,0 %), kaliy xlorid (104,8 %) hamda kaustik soda (2,7 m) mahsulotlarida o‘sish ko‘rsatkichlari qayd etildi.

Shuningdek, metil spirti (2019-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 43,3 %), akril va vinilpolimerlari asosidagi bo‘yoq va lak (64,5 %) mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatida pasayish kuzatildi.



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9,1 trln. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 8,8 % ini) tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-aprel oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta‘minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 5,5 % ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalaridan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-aprel	2020-yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Elektroenergiya, <i>mln.kVt/s</i>	21 596,4	21498,4	-98,0
Issiqlik energiyasi, <i>ming gkal</i>	11 709,5	12 105,4	395,9
Ko‘mirni yer ostida gazga aylantirish natijasida hosil bo‘lgan gaz, <i>ming kub. m.</i>	113 941	110 179	-3 762



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,7 trln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-aprel	2020-yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	61 328,3	57 245,6	-4 082,7
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	104,4	123,5	19,1
To'qimachilik chiqindilari, t	4 085,1	4 561,8	476,7

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan to‘qimachilik chiqindilari 11,7 % ga, xavfsiz chiqindilarni yig‘ish bo‘yicha xizmatlar 27,5 % ga hamda axlat o‘ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo‘shatish, tozalash va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 18,3 % ga oshganligi kuzatildi, shuningdek, oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar – 6,7 % ga pasayishi kuzatildi.



Iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 31,0 trln.so‘mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 4,9 % ga o‘sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 29,8 % ni tashkil etdi.



2019-yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020-yil yanvar-aprel oylarida iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 64,5 % dan 65,0 % gacha ko‘payganligi qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 7,7 % (2019-yil yanvar-aprel oylarida 7,9 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Andijon viloyatiga to‘g‘ri kelib, 26,7 % ni, shuningdek, Toshkent shahri 19,0 % ni, Toshkent viloyati 9,0 % ni, Samarqand viloyati 8,3 % ni hamda Farg‘ona viloyati 6,2 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sinh sur‘atida respublika o‘sinh sur‘ati (104,9 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Xorazm (117,2 %), Andijon (107,2 %), Farg‘ona (114,0 %) viloyatlarida, Toshkent shahrida (112,8 %) hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida (108,5 %) qayd etildi.



**Hududlar bo‘yicha iste‘mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o‘shish sur‘ati**
(2020-yilning yanvar-aprel oylarida)

	Mrd. so‘m	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, % da
O‘zbekiston Respublikasi*	31 040,1	100,0	104,9
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	679,5	2,2	108,5
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	8 277,1	26,7	107,2
Buxoro	1 582,6	5,1	101,9
Jizzax	560,2	1,8	97,2
Qashqadaryo	1 057,7	3,4	96,8
Navoiy	957,9	3,1	103,6
Namangan	1 286,0	4,1	95,1
Samarqand	2 563,2	8,3	95,0
Surxondaryo	533,2	1,7	102,1
Sirdaryo	738,1	2,4	91,9
Toshkent	2 794,9	9,0	101,8
Farg‘ona	1 928,9	6,2	114,0
Xorazm	1 766,8	5,7	117,2
Toshkent sh.	5 903,2	19,0	112,6

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Toshkent shahriga to‘g‘ri kelib, 22,6 %, shuningdek, Toshkent viloyati 15,7 % ni, Samarqand viloyati 9,1 % ni, Andijon viloyati 6,5 % ni hamda Farg‘ona viloyati 6,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘shish sur‘atida eng yuqori ko‘rsatkich Farg‘ona viloyati (123,0 %), Namangan viloyati (114,1 %), Surxondaryo viloyati (111,2 %) hamda Toshkent shahrida (114,5 %) qayd etildi.

* Hududlar bo‘yicha taqsimlanmagan ma‘lumotlarni qo‘shgan holda



**Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o‘shish sur‘ati,
(2020-yilning yanvar-aprel oylarida)**

	Mrd. so‘m	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, % da
O‘zbekiston Respublikasi*	10 872,3	100,0	103,4
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	436,7	4,0	107,0
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	706,0	6,5	102,1
Buxoro	601,4	5,5	102,9
Jizzax	222,3	2,0	100,7
Qashqadaryo	634,0	5,8	95,3
Navoiy	406,8	3,7	98,1
Namangan	558,7	5,1	114,1
Samarqand	984,2	9,1	95,5
Surxondaryo	306,6	2,8	111,2
Sirdaryo	316,8	2,9	101,0
Toshkent	1 708,5	15,7	98,3
Farg‘ona	710,5	6,5	123,0
Xorazm	416,7	3,8	98,3
Toshkent sh.	2 452,3	22,6	114,5

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Andijon viloyatiga to‘g‘ri kelib, 37,5 % ni, shuningdek, Toshkent shahri 17,1 % ni, Samarqand viloyati 7,8 % ni, Farg‘ona viloyati 6,1 % ni hamda Xorazm viloyati 6,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘shish sur‘atida yuqori ko‘rsatkich Qoraqalpog‘iston Respublikasi (111,2 %) Xorazm (124,6 %), Navoiy (108,1 %), Farg‘ona (109,4 %) viloyatlarida hamda Toshkent (111,2 %) shahrida qayd etildi.

* Hududlar bo‘yicha taqsimlanmagan ma‘lumotlarni qo‘shgan holda



**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati,
(2020-yilning yanvar-aprel oylarida)**

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, % da
O'zbekiston Respublikasi	20 167,8	100,0	105,7
Qoraqalpog'iston Respublikasi viloyatlar:			
Andijon	7 571,1	37,5	107,7
Buxoro	981,2	4,9	101,4
Jizzax	337,9	1,7	95,0
Qashqadaryo	423,7	2,1	99,2
Navoiy	551,1	2,7	108,1
Namangan	727,3	3,6	84,2
Samarqand	1 579,0	7,8	94,7
Surxondaryo	226,6	1,1	92,0
Sirdaryo	421,3	2,1	86,1
Toshkent	1 086,4	5,4	108,0
Farg'ona	1 218,4	6,1	109,4
Xorazm	1 350,1	6,7	124,6
Toshkent sh.	3450,9	17,1	111,2



Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 25,4 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 24,5 % ni tashkil etdi.



O‘zbekiston Respublikasi hududlari kesimida
sanoat ishlab chiqarish hajmlari

	2020-yil yanvar-aprel <i>mlrd. so‘m</i>	Fizik hajm indeksi, % da
O‘zbekiston Respublikasi*	104 185,4	94,6
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	4 433,4	103,0
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	10 965,7	104,5
Buxoro	5 497,0	101,9
Jizzax	1 593,4	101,1
Qashqadaryo	3 979,9	89,6
Navoiy	17 332,3	101,0
Namangan	2 831,0	102,7
Samarqand	4 522,7	81,2
Surxondaryo	1 424,6	106,5
Sirdaryo	2 432,0	90,0
Toshkent	17 417,9	96,1
Farg‘ona	5 997,6	98,5
Xorazm	2 849,0	104,8
Toshkent sh.	17 298,4	98,9

* Hududlar bo‘yicha taqsimlanmagan ma’lumotlarni qo‘shgan holda



O‘zbekiston Respublikasi hududlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘shish sur‘ati % da


Respublika sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining kamayishiga, Samarqand (2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan 81,2 %), Qashqadaryo (89,6 %), Sirdaryo (90,0 %), Toshkent (96,1 %), Farg‘ona (98,5 %) viloyatlarida hamda Toshkent (98,9 %) shahrida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada pasayganligi bilan izohlashimiz mumkin.

Sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksi, % da		Iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarish o‘shish sur‘ati, % da
81,2	Samarqand	95,0
89,6	Qashqadaryo	96,8
90,0	Sirdaryo	91,9
96,1	Toshkent	101,8
98,5	Farg‘ona	114,0
98,9	Toshkent sh.	112,6
101,0	Navoiy	103,6
101,1	Jizzax	97,2
101,9	Buxoro	101,9
102,7	Namangan	95,1
103,0	Qoraqalpog‘iston Resp.	108,5
104,5	Andijon	107,2
104,8	Xorazm	117,2
106,5	Surxondaryo	102,1

Iste‘mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Xorazm (2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan 117,2 %), Farg‘ona (114,0 %), Surxondaryo (102,1 %), Andijon (102,1 %), Navoiy (103,6 %), viloyatlarida, Toshkent shahrida (112,6 %), hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida (108,5 %) sezilarli darajada oshdi.



O‘zbekiston Respublikasi jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da



Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulushi Toshkent shahri (Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmning 16,6 %), Toshkent (16,7 %), Navoiy (16,6 %), Andijon (10,5 %), hamda Farg‘ona (5,8 %) viloyatlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Surxondaryo (1,4 %) hamda Jizzax (1,5 %) viloyatlariga to‘g‘ri kelmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalarini joylashganligi hisobiga Navoiy (17 353,1 ming so‘m), Toshkent (5 911,0 ming so‘m), Andijon (3 499,3 ming so‘m) viloyatlarida Toshkent shahrida (6 706,6 ming so‘m), o‘rtacha Respublika darajasi ko‘rsatkichidan (3 066,9 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Respublika bo‘yicha aholi jon boshiga iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 913,7 ming so‘m bo‘lgani holda, Toshkent shahrida – 2 288,7 ming so‘mni, Andijon viloyatida – 2 641,3 ming so‘mni, Toshkent viloyatida – 948,5 ming so‘mni, Navoiy viloyatida 959,0 ming so‘mni, Xorazm viloyatida 945,2 ming so‘mni tashkil etdi.




**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**
(2020-yil yanvar-aprel oylarida, ming so'm)

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
O'zbekiston Respublikasi	3066,9	913,7
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2332,0	357,4
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	3499,3	2641,3
Buxoro	2853,3	821,5
Jizzax	1150,2	404,4
Qashqadaryo	1210,8	321,8
Navoiy	17353,1	959,0
Namangan	1005,2	456,6
Samarqand	1164,1	659,8
Surxondaryo	540,7	202,4
Sirdaryo	2867,9	870,4
Toshkent	5911,0	948,5
Farg'ona	1595,5	513,1
Xorazm	1524,1	945,2
Toshkent sh.	6706,6	2288,7



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi**
(2020-yil yanvar-aprel oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 21,6 trln. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 20,8 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Jizzax viloyatida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 43,8 %), Toshkent shahrida (34,4 %), Namangan (35,3 %), Samarqand (36,8 %), Surxondaryo (37,1 %), Farg‘ona (31,5 %) viloyatlarida kuzatildi.

Respublikamiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Navoiy (5,9 %), Andijon (15,9 %) va Toshkent (14,5 %) viloyatlarida hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida (17,4 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



Respublikada faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2020-yil 1-may holatiga ko'ra)

Bugungi kunda respublikada 72,1 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 14,7 mingtasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 20,4 % i) Toshkent shahriga, 7,8 mingtasi (10,8 %) Farg'ona viloyatiga, 7,7 mingtasi (10,7 %) Toshkent viloyatiga, 7,0 mingtasi (9,7 %) Andijon viloyatiga, 6,0 mingtasi (8,3 %) Samarqand viloyatiga, 5,6 mingtasi (7,8 %) Namangan viloyatiga to'g'ri kelmoqda.


Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda		Faoliyat yuritayotgan korxonalar soni, birlikda
196	Sirdaryo	1831
199	Qoraqalpog'iston Respublikasi	2380
259	Navoiy	2811
194	Jizzax	2908
467	Surxondaryo	2981
437	Xorazm	3272
265	Qashqadaryo	3490
256	Buxoro	3619
414	Namangan	5637
495	Samarqand	5999
751	Andijon	6985
463	Toshkent	7705
389	Farg'ona	7782
582	Toshkent sh.	14706

2020-yil yanvar-aprel oyida respublikada 5 367 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 582 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 10,8 %) Toshkent shahrida, 463 tasi (8,6 %) Toshkent viloyatida, 751 tasi (14,0 %) Andijon viloyatida, 437 tasi (8,1 %) Xorazm viloyatida, 495 tasi (9,2 %) Samarqand viloyatida hamda 389 tasi (7,2 %) Farg'ona viloyatida tashkil etildi.



Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari (2020-yil 1-may holatiga ko'ra)

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonalari joylashgan hududlar 10 taligida Andijon (2 589 ta), Namangan (2 340 ta), Samarqand (1 424 ta), Qo'qon (1 342 ta) shaharlari hamda Toshkent shahrining Olmazor (2 035 ta), Chilonzor (1 858 ta), Uchtepa (1 796 ta), Yunusobod (1 603 ta), Shayxontoxur (1 335 ta) Sirg'ali (1 266 ta) tumanlari qayd etildi.



2020-yilning 1-may holatiga ko'ra Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar 10 taligiga esa Sirdaryo viloyati Shirin (42 ta) shahri hamda Sardoba tumani (57 ta); Navoiy viloyati Tomdi tumani (44 ta); Jizzax viloyati Yangiobod tumani (51 ta); Qoraqalpog'iston Respublikasi Kegeyli (59 ta), Qanliko'l (55 ta), Taxtako'pir (50 ta) hamda Bo'zatov tumanlari (10 ta); Surxondaryo viloyati Bandixon tumani (13 ta), shuningdek, Xorazm viloyati Tuproqqal'a tumani (1 ta) qayd etildi.

Sanoat statistikasi
boshqarmasi

Tel.: (71) 230-80-46